

O‘ZBEK TILI ALIFBOSINING O‘ZGARISHI: TARIXIY TARAQQIYOT VA ZAMONAVIY AHAMIYATI

Odilova Zarifaxon

Qo‘qon davlat universiteti 1-bosqich talabasi

Abdullayev Muhridin

Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani 10-sonli umumiyta’lim maktabi

Katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tili alifbosining tarixiy taraqqiyot bosqichlari, uning rivojlanish omillari hamda bugungi kundagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, alifbo almashinuvining o‘zbek tilining imlo me‘yorlari, ta’lim tizimi va raqamli kommunikatsiyadagi o‘rni tahlil qilinadi. Alifbo nafaqat yozuv vositasi, balki til taraqqiyoti va yozma madaniyatning muhim tarkibiy qismi ekanligi ilmiy asosda izohlanadi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, alifbo, yozuv, lotin alifbosi, imlo, fonetika, til taraqqiyoti, yozuv madaniyati.

Abstract. This article examines the historical stages of the development of the Uzbek alphabet, the factors influencing its evolution, and its significance in the present day. It also analyzes the role of alphabet reforms in the orthographic standards of the Uzbek language, the education system, and digital communication. The study scientifically explains that the alphabet is not only a means of writing but also an essential component of language development and written culture.

Keywords: Uzbek language, alphabet, writing system, Latin alphabet, orthography, phonetics, language development, written culture.

Til insoniyatning eng muhim aloqa vositasi bo‘lib, uning yozma shakli alifbo orqali ifodalanadi. Alifbo millatning ilmiy, madaniy va ma’naviy taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. O‘zbek tili ham uzoq tarix davomida turli yozuv tizimlaridan foydalangan. Har bir alifbo o‘z davrining ehtiyojlariga mos ravishda qo‘llanilgan va til taraqqiyotiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatgan.

Bugungi kunda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi mamlakatimizda asosiy yozuv tizimi sifatida qo‘llanilmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi o‘zbek

alifbosining tarixiy rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish, uning til taraqqiyotidagi o‘rnini ochib berish hamda zamonaviy ahamiyatini yoritishdan iborat.

O‘zbek xalqi tarix davomida bir necha yozuv tizimlaridan foydalangan. Dastlab arab yozuvi keng qo‘llanilib, ko‘plab ilmiy va badiiy asarlar aynan shu yozuvda yaratilgan. Arab yozuvi asrlar davomida xalqimizning yozma merosini saqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan.

XX asr boshlarida yozuv tizimini soddalashtirish va savodxonlikni rivojlantirish maqsadida lotin yozuvi joriy etildi. Keyinchalik kirill yozuvi qo‘llanila boshladi va uzoq yillar davomida ta’lim hamda matbuotda asosiy yozuv sifatida foydalanildi. Keyin esa lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi qabul qilindi. Bu alifbo o‘zbek tilining tovush tizimini ifodalashga xizmat qiladigan zamonaviy yozuv tizimi sifatida rivojlanib bormoqda. Har bir yangi alifbo bilan birga imlo qoidalarini takomillashadi, darsliklar va lug‘atlar yangilanadi. Lotin yozuvi kompyuter texnologiyalari, internet va xalqaro ilmiy axborot almashinuviga mosligi bilan ajralib turadi. Elektron hujjatlar, veb-saytlar va mobil ilovalarda lotin yozuvidan foydalanish qulay hisoblanadi.

Hozirgi lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi ta’lim jarayonini tashkil etishda, ilmiy maqolalar yozishda va axborot texnologiyalaridan foydalanishda muhim o‘rin tutadi. Yagona yozuv me’yorlariga amal qilish yozma nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ayrim harflarning yozilishi va qo‘llanilishida uchraydigan amaliy masalalarni ilmiy asosda o‘rganish hamda imlo qoidalarini izchil qo‘llash til taraqqiyoti uchun muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbek tili alifbosining rivojlanish tarixi tilimizning uzluksiz taraqqiyotini aks ettiradi. Alifbo o‘zgarishlari yozma nutqni takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy axborot texnologiyalariga moslashishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida ham alifbo va imlo me’yorlarini ilmiy asosda takomillashtirish o‘zbek tilining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent.
3. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent.

